

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

- 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**
 QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:
 XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.....8
- 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova.**
 RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR
 KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....13
- 3. S. Allayarov.**
 MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN
 FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.....16
- 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**
 EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA
 RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....20
- 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**
 MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA
 RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....27
- 6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**
 OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION
 TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....33
- 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**
 XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR
 HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.....38
- 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**
 O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY
 ASOSLARINING YARATILISHI.....43
- 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**
 INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK:
 MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....48
- 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**
 TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI
 RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....54
- 11. Li Yang.**
 EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION
 OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.....58
- 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**
 THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE
 MANAGEMENT.....64

13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

TARIX

1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

3. Otamuradova Roviyaon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

5. Саидов Шавкат Жумабаевич.

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

6. Salayev Umrbek Kadambayevich.

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

7. Safarov Tolib Todjiyevich.

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

FILOLOGIYA

1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

2. B.Q. Sapayeva.

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

PEDAGOGIKA

- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**
BOSHLANG‘INCH SINIF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

Davletov Mayliboy Yusupovich,

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

mayliboydavletov@gmail.com

O'ZBEK CHOLG'U IJROCHILIGI TARIXINI O'RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20157752>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy madaniyatini rivojlantirishda o'zbek cholg'u ijrochiligi tarixini o'rganishning samaradorlik darajasi tahlil qilingan. Muallif talabalarni kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko'ra toifalarga ajratgan holda, o'quv jarayonida fanlar integratsiyasi va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatini asoslab beradi. Shuningdek, musiqa darslarida milliy qadriyatlar va cholg'u ijrochiligi orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, cholg'u ijrochiligi, pedagogik texnologiya, integratsiya, innovatsiya, ma'naviy meros, kasbiy mahorat, musiqa ta'limi.

Аннотация: В данной статье анализируется уровень эффективности изучения истории узбекского инструментального исполнительства в развитии музыкальной культуры будущих учителей музыки в системе высшего педагогического образования. Автор классифицирует студентов по уровню профессиональной подготовки и обосновывает важность интеграции дисциплин и использования инновационных педагогических технологий в учебном процессе. Также освещаются вопросы формирования духовно-нравственного мировоззрения студентов через национальные ценности и инструментальное исполнительство на уроках музыки.

Ключевые слова: музыкальная культура, инструментальное исполнительство, педагогическая технология, интеграция, инновация, духовное наследие, профессиональное мастерство, музыкальное образование.

Abstract: This article analyzes the effectiveness level of studying the history of Uzbek instrumental performance in developing the musical culture of future music teachers in the higher pedagogical education system. The author classifies students according to their professional training levels and substantiates the importance of subject integration and the use of innovative pedagogical technologies in the educational process. Furthermore, the issues of forming students' spiritual and moral worldviews through national values and instrumental performance in music lessons are highlighted.

Keywords: musical culture, instrumental performance, pedagogical technology, integration, innovation, spiritual heritage, professional skill, music education.

Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvoffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchi qanchalik bilimdon o'z kasbini puxta egallagan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mahironi foydalana oladigan bo'lsa, u kelajak avlodni ham shunchalik bilimdon har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalay oladi. Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda va musiqiy fanlardan-musiqa o'qitish metodikasi, musiqa nazariyasi va tahlili, xor va xorshunoslik, dirijyorlik, solfedjio kabilardan bilim va malakalari va eng muhimi o'z tanlagan kasblariga munosabati muhim o'rin tutadi. Bu borada musiqiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni bilim, saviya, musiqiy tayyorganlik va kasbga munosabatlari turlicha bo'lishini ham ta'kidlab o'tishi joiz. Bu o'rinda ularni uch toifaga ajratish mumkin:

1. Musiqa bo'yicha bazaviy ma'lumotga ega bo'lgan, kasbini sevadigan, kelgusida o'qituvchi bo'lish orzulari amalga oshishi uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni chuqur egallashga astoydil intilib o'qiydigan talabalar;

2. Musiqaga ixtidori va qobiliyati mavjud, lekin, barcha fanlarga ham astoydil qiziqavermaydigan va o'zlarini kelajak faoliyatida zarurligini his qilmaydigan talabalar. Bular pedagogik faoliyatning turli tomonlarini puxta o'zlashtirib ololmaydilar.

3. Bu toifadagi talabalar o'quv yurtiga o'z xohish – istaklariga qarshi majburan kirib qolgan bo'lib, bu ularni o'qishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ular pedagogik kasbida o'qib turib kelajakda bu sohada ishlashni asosiy maqsad qilib qo'ymaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'qish davomida innovatsion faoliyatga tayyorlash ularni pedagogik faoliyatga tayyorlash ishlari bilan yaxlit bir butunlikda olib borilsagina bu faoliyat samarali va maqsadga muvofiq bo'ladi. Musiqiy ta'lim yo'nalishida fanlar integratsiyasi shunday ko'rinish kasb etadiki har bir fan o'z navbatida ikkinchi, uchinchi va boshqalar barcha musiqiy, amaliy – nazariy bilimlar jamlanmasini o'zida mujassamlashtirgan holda kerakli ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni taqozo etadi. Masalan cholg'u asbobida ijrochilik mahoratini egallash uchun musiqa nazariyasi (musiqani ifoda vositalari), solfedjio, (nota o'qish) musiqa asarlari tahlilini, xor va xorshunoslik fanida esa vokal kuylash, nazariy savodxonlik, dirijyorlik, xor aranjirovkasi, asarlar tahlili bo'yicha ma'lum bilimlar zahirasi talab qilinadi. Shu bois har bir fan o'qituvchisi o'zi dars berayotgan fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib talabalarni pedagogik texnologiya faoliyatiga tayyorlab borishi kerak bo'ladi. Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida bu yo'nalishdagi ishlarni kuzatish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, musiqiy ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan professor – o'qituvchilarni aksariyati talabalarni texnologik faoliyatga tayyorlashga o'zini hech bir aloqasi yo'q deb biladi. Bu ish bilan shug'ullanishni “Pedagogika” fani yoki “Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi” fani o'qituvchilarining ishi deb qarashadi, yoki umuman bu ishga e'tibor berishmaydi. Bunga sabab birinchidan professor – o'qituvchilarni o'zlarini ushbu faoliyatga tayyor emasliklari bo'lsa, ikkinchidan bo'lg'usi pedagog – kadrlarni texnologik faoliyatga tayyorlab borishning ijtimoiy, siyosiy zarurat sifatidagi mohiyatini tushunmasligidir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini texnologik faoliyatga tayyorlash bir fan doirasida emas, barcha fanlarni o'qitilishida yaxlit tizim asosida tashkil etilsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Ya'ni musiqani xor va xorshunoslik, dirijyorlik, vokal ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, musiqa tarixi, musiqiy asarlar tahlili, musiqa o'qitish metodikasi (bu fanlar talabaning kelajakdagi musiqa o'qituvchilik faoliyatida muhim o'rin tutuvchi fanlar hisoblanadi) kabi fanlar o'qitilishi jarayonida kasbga tayyorlash va texnologik jarayonga tayyorlash ishlari bir – biri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilsa va tadbirlarning (mashg'ulotlarning) har biri bosqichma – bosqich bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayonini mahirona ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga tayyorlasagina u bir butun tizim sifatida samaradorlik kasb etadi.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek xalqining musiqa madaniyati uzoq tarixiy jarayonni an'anaviy ijroda o'z talqinini tarannum etgan kasbiy musiqa, xalqimizning betakror bastakorlik ta'lim dargohi, shuningdek an'anaviy, folklor-badiiy havaskorlik musiqiy, og'zaki ijodi va boshqa ko'rinishdagi ma'naviy merosga xos bo'lgan boyliklar xalqimizning an'anaviy, milliy

qadriyati darajasida mumtoz meros o'z asosida yosh avlod tarbiyasining yuksaltirish ishidagi bosh mezonlardan biriga aylanganligini ta'kidlaymiz.

Pedagogik amaliyotlar jarayonida talabalar o'zlarida yetishmayotgan kamchiliklarni aniqlaydilar, ularni tuzatish ustida ishlaydilar, bu jarayon ular uchun obrazli qilib aytganda "katta konsart oldidan generalniy repetitsiya" vazifasini o'taydi. Bu jarayonda ular erkin holda o'zlarini sinab ko'radilar, ularning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyatni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan bog'liqlikda olib bora olishi yoki yo'qligi masalasi oydinlashadi. Shu bilan birga talabalar faqat pedagogik amaliyot jarayonidagina o'qituvchilik kasbining turli – tuman, qiyin va ijodiy tomonlarini bevosita ko'rib, boshdan kechiradilar.

O'tmish tariximizga va hozirgi kunimizda ham an'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz insonlarni hamisha iymonga, mehr-muruvvatga, ahillik hamda hamjihatlikka chorlab kelgan. Bunday tamoyillarning tub negizida o'tmish ajdodlarimizning beminnat xizmatlari hamda ijodiy mahsullarining mohiyati yotganligini ko'ramiz.

Kuzatuvlarimiz yaxshi tashkil etilgan pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy shakllanishi yanada faol kechishini ko'rsatdi. Chunki, doimiy ravishda ilg'or, tajribali o'qituvchilar bilan bo'lgan aloqa, ularning ijodiy ishlarini bevosita kuzatish, o'rganish, eng yaxshi tajribalarni egallashlari va o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Darsda tarbiya ishlarini olib borish, rivojlantirish va tarbiyalash funktsiyalarini kompleks tarzda amalga oshirilishini nazarda tutadi. Dars bolaning bilimlarini oshiradi, vokal-xor malakalarini rivojlantiradi, axloqiy estetik fazilatlarini mehnatga munosabatini shakllantiradi.

2. Musiqa darslarida tarbiyaviy ishlarning o'tilishi shakliga ko'ra qat'iy bir sistema bo'yicha olib boriladi. Musiqiy faoliyat turlari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lishi, biridan keyin ikkinchisiga o'tishi kerak.

3. Tarbiyaviy ishlar ham dars o'qitish tamoyillariga muvofiq bo'ladi. U tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi. Ilmiy tushunish uchun qulay hisoblanadi.

4. Musiqa darsi mazmuni o'quv dasturiga muvofiq bo'lib, u boshqa darslar sistemasidagi bo'g'inlarni qamrab oladi.

Musiqali harakatlar, cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarni amalga oshirishda o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar ko'prok o'yin xususiyatlari bilan bog'liq. Dasturda tinglash va kuylash uchun asarlar talab darajasidan ortiq berilgan. Bu o'qituvchiga asarlarni sinf imkoniyatlari va o'quv yilining muhim sanalariga muvofiq tarzda tanlab o'qitish imkoniyatini beradi.

Unda chorak mavzulariga moslab asarlarni deyarli ikki hissa miqdorda tanlash va lozim bo'lganda dasturdan tashqari asarlardan ham foydalanish mumkin. Nota savodi, cholg'uchilik, raqs harakatlari, shuningdek, musiqa ijodkorligi faoliyati mazmunida tavsif etilgan asarlar ham shartli ravishda berilgan. Dars sharoitiga qarab ularni almashtirish mumkin. Bu esa darslarni rejalashtirishda va darslarga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy yondoshishni taqazo etadi. Bunda shu narsaga e'tiborni kuchaytirish lozimki, garchi dasturda asarlar va mashg'ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida-alohida ko'rsatilgan bo'lsa-da, darslarni rejalashtirishda va ularni o'tishda dars mazmunidan kelib chiqishi va uning mohiyatini ochib berishi lozim bo'ladi. Shunday qilib, darsda musiqa faoliyatlari mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tashkil qiladi.

Musiqa madaniyati darslarida xalqimizning mumtoz va zamonaviy qadriyatlaridan bahramand bo'lish darslarning samarali bo'lishida o'rinlidir. Dars davomida o'qituvchi talabalarga faqatgina musiqa tinglash va qo'shiq kuylash bilan chegaralanmay "Odob-inson ziyinati" mavzusida qiziqarli ochiq muloqotlar o'tkazishi, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan o'gitlardan foydalanishi mumkin.

Ya'ni, kishilarda bo'lishi zarur bo'lgan xislatlar, aynan musiqada ham bo'ladi, jumladan, milliy qo'shiq chiroyli harakat, hushmuomalalik-hushohanglik bilan uyg'unlashadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, odobli bola bosiq, muloyim, kamtar, ota-onasiga mehribon bo'ladi. Qo'pol, manmansiragan, xudbin bolalar esa elga yoqmaydi. Xuddi shuningdek yoqimsiz qo'shiq ham insonning g'ashini keltiradi, eshitishga arzimaydi.

Dars davomida tarbiyaviy qo‘shiqnlarni tinglash orqali talabalarning musiqa idroki kuchayadi, mustaqil fikrlaydi hamda tinglangan ohanglar orqali ularning taqqoslash qobiliyatlari rivojlanadi.

Ayniqsa, talabalarni ma‘naviy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlardan oqilona foydalanib, milliy ohanglarni his eta bilishni shakllantirish lozim. Insonning qaysi millatga mansubligi faqat g‘oyagina emas, balki tuyg‘u hamdir. talabalarga dars o‘tish jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalanishda diqqatimizni bugungi o‘tilajak dars mavzusiga qaratishimiz lozim. Biroq, ba‘zan san‘atga qiziqadigan talabalarni kuzatsangiz, partani chertib, sizga jo‘r bo‘layotganini ko‘rasiz. Shuni o‘zi u sizni qabul qilayotganini, qo‘shiq bilan yashayotganligini, ohangni chin dilidan his etayotganini bildiradi.

Musiqa madaniyati darslarida chalishni o‘rgatish, musiqa asboblari bilan tanishtirish chog‘ida qaysi talabaning qay darajada layoqati borligini ham anglashimiz lozim. Talabaning qanday asbob ushlayotgandayoq, unga bir mehr bilan qarayotganidayoq ana shunday layoqat seziladi. Shunda sizda, bunday talaba bilan ishlash, qo‘shimcha mashg‘ulot o‘tish ishtiyoqi namoyon bo‘ladi, natijada u sizdan cholg‘u asbobini o‘rganadi.

Shuning o‘zi ham dars jarayonida musiqa asbobidan foydalanishning ko‘rgazmali hamda natijani asosidir. Aynan cholg‘u asboblari bilan ishlashni ham yangi texnologiyaga asoslanib o‘rgatsak talaba uchun qiziqarli bo‘ladi.

Mashg‘ulotni talabalar tomonidan to‘la o‘zlashtirilishini ta‘minlash maqsadida o‘qituvchi pedagogik-texnologiya o‘yinlaridan foydalanish lozim. Ulardan “Miyaga hujum”(Breynistorning) yoki fikrlar jangi maydoni biror muammoni yechimini guruh sharoitida topish usulidir.

Musiqa tarbiyasining millatimiz taraqqiyoti yo‘lida xizmati g‘oyat beqiyosdir. Biz mustaqil davlat sifatida jahon davlatlari orasida jahon minbariga chiqdik. Davlatimizni ma‘naviy va ma‘rifiy deb e‘tirof etdik. Musiqa kelajak avlodning ongini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi. Musiqa nafaqat madaniy, balki siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning naqadar ma‘suliyatli ekanini his qilmoq kerak.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san‘at turidir. Har bir insonni ma‘naviy shakllanishida oilani, ta‘lim dargohini, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko‘plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, insonni atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g‘oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma‘naviy ozuqa beradi.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o‘qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog‘liq. Har qanday san‘atkor ham, ta‘lim dargohida musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o‘qituvchisi pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o‘qitish va metodikasi hamda o‘z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayev B. Tomosha san‘ati tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 152 b.
2. Qodirov M.X. O‘zbek teatri tarixi. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. – 240 b.
3. Madaniyat va san‘at atamalarining izohli lug‘ati. B.Sayfullayev tahriri ostida. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 352 b.
4. Tursunov T. Sahna va zamon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 404 b.
5. Rahmonov M. O‘zbek teatri qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: Fan, 1975.

6. Qodirova D.M. XX asr o‘zbek teatri ssenografiyasi: tarkib topishi va rivojlanish jarayonlari: Avtoreferat. ... san.fan. dok. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San’atshunoslik instituti, 2010. – 48 b.

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].